

ODIL YOQUBOV ASARLARINING TURKCHA TARJIMASIDA FRAZELOGIZMLARNI BERISH MASALALARI ("DIYONAT" ASARI MISOLIDA)

Sultonova Nargiza Isajon qizi,

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0000-5462-2612

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy asarlarda frazeologik birliklar, xususan, maqol iboralarni tarjima qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi – badiiy matnlardagi maqol va iboralarning tarjima ekvivalentligini ta'minlashda uchraydigan lingvomadaniy to'siqlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishdir. Ishda qiyosiy-tahliliy usullar qo'llanilgan. Natijada iboralarni tarjima qilishda ekvivalentlik (adekvatlik), muvofiqlik va nomuvofiqlik kabi tarjima usullarining samaradorligi asoslab berildi hamda badiiy matndagi iboraviy yo'qotishlarni qoplash mezonlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, maqol va iboralar, badiiy tarjima, lingvomadaniy kompetensiya, tarjima ekvivalentligi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты перевода фразеологических единиц, в частности пословиц и устойчивых выражений, в художественных произведениях. Цель исследования заключается в выявлении лингвокультурных барьеров, возникающих при обеспечении переводческой эквивалентности пословиц и фразеологических выражений в художественных текстах, а также в разработке эффективных стратегий их преодоления. В работе использованы сравнительно-аналитические методы исследования. В результате обоснована эффективность таких переводческих подходов, как эквивалентность (адекватность), соответствие и несоответствие, а также предложены критерии компенсации фразеологических потерь в художественном тексте.

Ключевые слова: фразеология, пословицы и устойчивые выражения, художественный перевод, лингвокультурная компетенция, переводческая эквивалентность.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of translating phraseological units, particularly proverbs and idiomatic expressions, in literary works. The aim of the study is to identify the linguocultural barriers encountered in achieving translation equivalence of proverbs and idiomatic expressions in literary texts and to develop effective strategies for overcoming them. Comparative and analytical research methods were employed in the study. The findings substantiate the effectiveness of translation approaches such as equivalence (adequacy), correspondence, and non-correspondence, and propose criteria for compensating phraseological losses in literary translation.

Keywords: phraseology, proverbs and idiomatic expressions, literary translation, linguocultural competence, translation equivalence.

Kirish. Tilning keng ifoda imkoniyatlarini namoyon qiluvchi frazeologizmlar nutq ta'sirini kuchaytiruvchi va insonlar tomonidan o'zlashtirilib, ularning ongiga chuqur singib ketgan so'zlar sifatida xalqning urf-odati, an'analari, madaniyati va tarixini o'zida yaqol aks ettiradi. Ularning badiiy tarjimada berilishi fanning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Shu sababli so'nggi yillarda tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik fanlari kesishmasida badiiy tarjimada frazeologik birliklarni boshqa tilga o'girishdagi nazariy va amaliy muammolar tadqiqotchilarning doimiy qiziqish markaziga aylanib bormoqda.

Maqol va iboralar tilning bevosita tarjima qilinmaydigan unsurlaridan hisoblanadi. Bir madaniyatda tabiiy bo‘lgan ibora, boshqa tilda noto‘g‘ri talqin qilinishi yoki mutlaqo tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Chunki ularning ma‘nosi ko‘pincha so‘zlarning yuzaki mazmunidan emas, balki butun birlikning obrazli, ko‘chma ma‘nosidan kelib chiqadi.” Masalan, o‘zbek tilidagi “*Burni ko‘tarilib ketgan*” iborasi turk tiliga “*burnu havalarda*” tarzida tarjima qilinadi. Agar uni so‘zma-so‘z tarjima qilinsa (burnu yukselmiş), noto‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Frazologik birliklar tilning nafaqat kommunikativ, balki estetik, ekspressiv va etnografik funksiyasini ham ta‘minlovchi fundamental lisoniy hodisadir. Aynan shu sababli ham iboralar tarjima jarayonida eng murakkab segment sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning tarkibidagi milliy kolorit, obrazlilik va konnotativ ma‘no strukturasi boshqa til muhitida aynan saqlash jiddiy lingvistik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Badiiy tarjimada frazeologik birliklarni tarjimada berilishi mavzusida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbek tadqiqotchilaridan Q.Musayevga ko‘ra, frazeologik birliklar bir tildan ikkinchi tilga asosan to‘rt xil yo‘l bilan – asliyat tilidagi komponentlar tarkibi, grammatik qurilishi hamda ma‘no va uslubiy vazifasi mos ekvivalentlar, boshqa xossalari farq qilgan holda ma‘no va uslubiy vazifasi o‘xshash muqobil variantlar, kalka usulida va tasviriy yo‘sinda tarjima qilinadilar. E.Ochilov va N. Xodjayevalar esa maqol, matal hamda idiomalarni muqobil ifodalashda uchta asosiy yo‘nalishni ko‘rsatib o‘tadilar: asl nusxa frazeologizmiga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent topish, matnga monand muqobil variantlarni qo‘llash hamda zarurat tug‘ilganda iborani so‘zma-so‘z (aynan) tarjima qilish. X. Hamidov esa o‘zining “O‘zbek qissa va romanlari turk tilida” nomli monografiyasida frazeologik birliklarni o‘girishning besh qoidasini keltirib o‘tadi.

1. Asliyat tilidagi frazeologik birlikni tarjima tilidagi muqobiliga har jihatdan teng bo‘lgan frazeologik birlik vositasida o‘girish;

2. Bevosita muqobil topilmaganda asliyatdagi frazeologizmni tarjima qilinayotgan fraza bilan umumiy ma‘noga ega, ammo boshqa lug‘aviy-obrazli asosga qurilgan o‘xshash frazeologik birlik vositasida tarjima qilish.

3. Frazologik birliklarni o‘girishda kalkalash usuli (so‘zma-so‘z tarjima);

4. Jumla ichida frazeologizm va uning ko‘chma ma‘nosi qisqacha izohlash

5. Tarjima tilida ma‘no jihatdan bir xil va muqobil frazeologik birliklar bo‘lmaganda birlikning ko‘chma ma‘nosini izohlash.

Mazkur usullar rus olimi A.V. Fedorovning badiiy tarjimadagi iboralar tarjimasiga doir qarashlari bilan ham uzviy bog‘lanadi. Olim iboralar tarjimasidagi lisoniy munosabatlarni quyidagi uch tamoyil asosida guruhlaydi:

To‘liq mos kelish (adekvatlik);

Qisman mos kelish (muvofiqlik);

Mutloq mos kelmaslik (nomuvofiqlik).

Tarjima jarayonida uchraydigan lingvomadaniy o'ziga xosliklar va ekvivalentlik muammolari haligacha to'liq yechimini topmagan. Ayniqsa, badiiy asarlarda muallif uslubi va madaniy realiyani saqlab qolgan holda frazeologizmlarni tarjima qilish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Ushbu maqolada tahlilga tortilgan frazeologizmlar Odil Yoqubovning "Diyonat" romanidan olinib, ushbu romanning Ahsen Batur tomonidan o'g'irilgan "Vicdan" nomli tarjimasini bilan solishtirildi.

"Diyonat" romanidagi iboralar berilgan parchalar va ularning turkcha tarjimasini ko'rib chiqaylik:

Asliyat matni: "...to'g'ri bog'ga borib, birga chaqchaqlashishni, to'qaylarda ov qilishni yaxshi ko'rar, xullas u hammaga, hamma unga o'rganib qolgan, ko'nglida kiri yo'q soddadil odam edi." [8; 12-b.]

Tarjima matni: "...doğru bağa girer, onunla şakalaşır, fundalıkta avlamayı severdi. Kısacası, insanlar ona, o da insanlara alışmış temiz kalpli bir insandı." [7; 22-b.]

Asliyat matnidagi ichida g'arazi yo'q, kek saqlamaydigan ma'nosida ishlatiladigan "ko'nglida kiri yo'q" iborasi, turk tiliga "temiz kalpli" (so'zma-so'z toza yurakli, toza ko'ngilli) tarzida muqobili bilan ishonchli tarjima qilingan.

Navbatdagi misol:

Asliyat matni: "Abror Shukurovich xaritadan ko'zini uzib:

- Ha, albatta, - dedi o'ychan tovushda. Bunaqa ekan otaning ko'ngli og'rishiyam mumkin." [8; 13-b.]

Ushbu misolda ikkita ibora berilgan. Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" kitobida "ko'zini uzmoq" iborasiga qarashni to'xtatmoq, "ko'ngli og'rish" iborasiga esa "avvalgi yaxshi munosabati o'rniga ranjish hissi uyg'onmoq" deya ta'rif bergan. Ushbu iboralar turk tiliga quyidagicha o'g'irilgan:

Tarjima matni: "Ebrar Şüküroviç haritadan başını kaldırıp:

- Evet, elbette, dedi hafif bir sesle. Durum böyle ise hocanın kırılmış olması mümkün." [8; 24-b.]

Birinchi iborani tarjima qilishda tarjimon turk tilidagi "başını kaldırmak" fe'lini qo'llagani, asliyat matnidagi ma'noni to'liq qoplagan. Ikkinchi iborani tarjima qilishda, tarjimon biroz noto'g'ri yondashgani ko'rinadi. Asliyat matnidagi ikkinchi ibora qatnashgan parchani tarjimon (so'zma-so'z) "ustozning ranjigan bo'lishi mumkin" tarzida ag'dargan. Fraeologizmlarni tarjima qilishda tarjimondan ikki tilni shunchaki bilish emas, balki, madaniyati-yu, urf-odatlarini, kundalik odatlarini bilish ham talab etiladi. Shundagina tarjima matnlar o'quvchi kitobxonga chuqurroq va ta'sirliroq va albatta to'g'ri yetkazib beriladi.

Keyingi misolga o'taylik:

Asliyat matni: "Abror Shukurov yuragi "shig" etib, domla Shomurodovga qaradi va gapni boshqa boshqa tomonga burish uchun:

- *Juda ajoyib kitoblar yig'ibsiz, - dedi.* [8; 15-b.]

Tarjima matni: "Ebrar Şükürov yüreği "şig" ederek Prof. Şamuradova baktı ve sözü başka bir tarafa çekmek için:

"Çok acayip kitaplar toplamışsınız," dedi." [7; 25-b.]

Asliyat matnidagi "yuragi shig' etmoq" iborasi, o'zbek tilida birdan qo'rqib ketish, cho'chib ketish ma'nolarida anglatadi. Turk tilida bu iborani aynan ekvivalentlari bor. Iborani "Abror Şukurov **içinde bir ürpertiyle** Profesör Şomurodov'a baktı" tarzida tarjima qilinganda, ma'no jihatdan to'g'riroq yondashilgan bo'lishi mumkin edi.

Xulosa. Odil Yoqubovning "Diyonat" romani tilidagi iboralarni Ahsen Batur tomonidan turk tiliga o'girilgan "Vicdan" tarjimasi bilan qiyoslab o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

O'zbek va turk xalqlarining madaniyati, tili va qarashlari juda yaqin bo'lgani uchun ko'pgina iboralar tarjimada o'zining aynan muqobiliga ega bo'lgan.

Tarjimon ba'zi o'rinlarda iborani so'zma-so'z tarjima qilmasdan, turk tilining tabiatiga moslab muvaffaqiyatli o'zgartirgan. Kerakli fe'lini qo'llash orqali qahramonning harakatini va asardagi umumiy ma'noni saqlab qola olgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjimada iboralarning ko'chma ma'nosini to'liq his qilmaslik natijasida matnda kamchiliklar ham yuzaga kelgan. Bu asliyatdagi ichki psixologik holat va emotsional bo'yoqni biroz xiralashtirgan, tarjimada chuqur ma'no biroz pasaygan.

Xulosa qilib aytganda, Ahsen Batur o'zbekcha iboralarni turk tiliga o'girishda ko'p o'rinlarda muvaffaqiyat qozongan. Ammo, ba'zi bir tillararo nozikliklar va iboralarning ko'chma ma'nolari kelgusi tarjimalarda kontekstni yanada chuqurroq tahlil qilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidov X. O'zbek qissa va romanlari turk tilida. – Toshkent, 2022.
2. Hamidov X. O'zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. – Toshkent, 2014.
3. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.
5. To'raqulova D. Muqobilsiz leksika: iboralar tarjimasining ayrim muammolari (A.Qahhor hikoyalarning koreys tiliga tarjimasi misolida) // Tamaddun nuri jurnali. – 2024. – № 12. – B. 373-376.
6. Yakubov A. Vicdan: Roman – İstanbul: İleri yayınlari, 2022.
7. Yoqubov O. Diyonat: Roman. – Toshkent: Nurli dunyo nashriyot uyi, 2024.